



ISSN 2181-2551
E-ISSN 2181-256X

"IQTISODIYOT VA TURIZM"
xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali

«ЭКОНОМИКА И ТУРИЗМ»
международный научно- инновационной журнал

"ECONOMICS AND TOURISM"
international scientific and innovative journal

№2(16) 2024

O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022 yil 30 apreldagi 315/5-son qarori bilan iqtisodiyot fanlari buyicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.



MUNDARIJA

Alisher Eshtaev, Khusniddin Egamnazarov. Establishment Prospects of the Toprak-kala Historical Ethno-Museum	5
Khashimov Pazliddin. Economic development in latin american countries: its potential growth opportunities and prevalent challenges	11
Ахмедова Азиза Тохировна. Привлечение свободных денежных средств населения в инновационно-инвестиционный капитал	17
Навруз-Зода Б.Н. Роль информационных технологий при организации управленческого учета затрат в сфере обслуживания.....	25
Бибутова Шахло Саъдуллаевна. Совершенствование механизмов корпоративного управления в химической промышленности.....	31
Мусаева Жамила Кароматовна. Необходимость управления обновлением основных активов в промышленных предприятиях Узбекистана.	40
Анваров Нодир Аллаёрович. Анализ финансовых инструментов и механизмов поддержки агротуризма в Самарканде.....	50
Ergashev R.X. Qishloq xo'jaligining meva-sabzavotchilik yo'nalishlarida klaster-kooperatsiyalarni tashkil etish va rivojlantirish masalalari	65
Юлдуз Пирназаровна Урунбаева. Аҳолининг маънавий-маърифий қадриятлари дунёсини бойитиш, ёш авлодни ватанга муҳаббат ва садоқат руҳида тарбиялашда музейларнинг аҳамияти	75
Isayev Atabek Djurabayevich. “Ko'chish samarasi”ning narxlar barqarorligiga ta'siri va uni raqamli iqtisodiyot sharoitida ta'sirini kamaytirish	85
Navruz-zoda Layli Baxtiyorovna. Insonni tadbirkorlik qobiliyati namoyon bo'lishining an'anaviy va zamonaviy shakllaridan foydalanishning konseptual asoslari	95
Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich, Atajanova Guli Maxsudovna. Iqtisodiyot tarmoqlarida bozor xizmatlarini rivojlantirish yo'nalishlari	108
Ochilov Vahob Shavkatovich. Yo'l-qurilish sohasida davlat-xususiy sherikligining fransiya tajribasi	116
Jurayev Navruz Jurayevich. Oilaviy korxonani boshqarishning iqtisodiy-huquqiy xususiyatlari va uslubiy jihatlari	129
Ergasheva Aziza Farmonovna. Buxoro viloyatida hunarmandchilik mahsulotlari bozori holatini anketa-so'rovi usuli orqali baholash	137
Акбаров Хусниддинжон Мўйсин ўғли. Ўзбекистон Республикасида валюта бозорининг жорий ҳолати ва уларнинг ривожлантириш истиқболлари	149
Xodjaye Anvar Rasulovich. Xalqaro franshizlarni jalb qilish uchun raqamli marketing vositalari va usullaridan foydalanish istiqbollari	158
Сафаров Фарход Анварович. Роль и эффективность инноваций в развитии сферы услуг	167
Tўхсанов Қудратилло Нозимович. Тадбиркорлик субъектлари фаолиятини солиққа тортишда қўп омилли эконометрик модели қўллаш механизми таҳлили.....	175
Xidirova Gavhar Rustamovna. Viloyatda ichki turizmni va iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish	185

VILOYATDA ICHKI TURIZMNI VA IQTISODIYOTNI QO‘LLAB- QUVVATLASH VA RAG‘BATLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: Maqolada hududiy iqtisodiy hamkorlik mintaqasida ichki turizmni rivojlantirishning konseptual asoslarini ikkita alohida strategiya - hajmga asoslangan strategiya va yuqori qiymatli strategiya orqali turizm industriyasi imkoniyatlardan kelib chiqqan holda amalga oshirish yo‘nalishlari ko‘rib chiqildi. Bunda kam xarajat qilib, yuqori qo‘shilgan qiymatni o‘zlashtirish bilan bog‘liq ommaviy turizm yo‘nalishlari va hamkorlik mintaqasining resurs imkoniyatlari tahlili amalga oshirildi. Sayohat qilishning asosiy motivatsiyasi bo‘lgan turizm bozori segmentlarga ajratildi va ularning ulushi mahalliy, qo‘shni davlatlardan kiruvchi va uzoq davlatlardan tashriflar kabi uch guruhga ajratib tahlil qilindi. Bundan tashqari, ichki turizmni rivojlantirishning konseptual asosini ishlab chiqishda amalga oshirishili lozim bo‘lgan chora-tadbirlarga ta‘sir qiluvchi iqtisodiy, siyosiy, madaniy va tahlil natijasiga ko‘ra xulosa va takliflar shakllantirildi.

Kalit so‘zlar: ichki turizm, klaster konsepsiyasi, mahsus sanoat va turizm zonolari, qo‘llab-quvvatlash mexanizmi, konseptual model

Kirish: Jahonda bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, turli xavf-xatarlarni shakllanishi sharoitida ichki turizmga bo‘lgan e‘tiborni yanada kuchayishi va ushbu yo‘nalishda ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu o‘rinda asosiy tadqiqotlar hududlarni kompleks rivojlantirishda va aholi faravonligini ta‘minlashda ichki turizm ta‘sirini o‘rganish, uni hududdagi iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari bilan o‘zaro bog‘liqlik darajasini aniqlash, kambag‘allikka qarshi kurashish, raqamli va yashil iqtisodiyotni hududlarda shakllantirishda ichki turizmni muhim omil sifatida o‘rganish, har bir mamlakatni o‘ziga xos xususiyati va olib borayotgan isloxlarni ustuvor yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda ichki turizmni tahlil qilish va prognozlashtirish, rivojlantirish strategiyasini nazariy-uslubiy asoslarini ishlab chiqishga, davlat tomonidan ichki turizmni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirishga, unga bo‘lgan talab va taklifni asoslashga qaratilgan.

O‘zbekistonda keyingi yillarda ichki turizmni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘lami keskin oshdi. Ayniqsa, ichki turizmni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini amaliyotga joriy qilish va kelajakda sayohatchilar oqimini keskin oshirish bo‘yicha aniq rejalar belgilab berildi. “O‘zbekiston-2030” strategiyasiga muvofiq “ichki sayyohlar sonini 25 million nafarga oshirish” ko‘zda tutilgan¹. Mamlakatimiz hududlarida ichki turizmni barqaror rivojlanishini ta‘minlash, o‘ziga xos xususiyatlarini va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini asoslash, iqtisodiy o‘sisdagi va ijtimoiy muammolarni hal qilishdagi o‘rnini aniqlash, yagona o‘zaro bog‘langan hududiy zanjirni shakllantirishga qaratilgan.

Buxoro viloyatida ichki turizm va iqtisodiyot tarmoqlarini barqaror rivojlantirish uchun hududda turizm va iqtisodiyotni o‘zaro bog‘liqlikda rivojlantirish lozim bo‘lib, uni amalga oshirishga qaratilgan strategiyani takomillashtirish lozim. Bu borada mamlakatimizda yangi tahrirdagi O‘zbekiston Konstitutsiya qabul qilinib, shu orqali mamlakatimizni barqaror rivojlanishiga qaralgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirila boshlandi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili: Keyingi yillarda O‘zbekiston hududlarida turizmni rivojlantirish bo‘yicha bir qator Prezident va hukumat qarorlari qabul qilindi. Bu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Butunjahon turizm tashkiloti sessiyasidagi nutqida bir

¹ “Ўзбекистон-2030” стратегияси тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони, 2023йил, 11 сентябрь, №ПФ-158

qator turizmni barqaror rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tashabbuslarini e'tirof etish lozim. Bular Birlashgan Millatlar tashkiloti doirasida "Global xavfsiz turizm" kodeksini ishlab chiqish, "yashil turizmni" rivojlantirish bo'yicha xalqaro xarajatlar dasturini qabul qilish, 2025-yilni "Butunjahon inklyuziv turizm yili" deb e'lon qilish, sayyohlik bo'yicha tarixiy shaharlar kengashini tuzish va uni birinchi yig'ilishini Buxoro shahrida o'tkazish, xalqaro turizm akademiyasini global ta'limiga aylantirish, jahon yoshlar turizmi sammitini Toshkent shahrida o'tkazish, global media kampusini tashkil etish va boshqalar.¹

Taklif etilgan institutsional va tashkiliy mexanizmlar jahonda va mamlakatimizda turizmni yanada yuqori sur'atlar bilan rivojlanishi uchun turtki bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi "Ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi 6165-son Farmoni va boshqa rasmiy hujjatlarda mamlakat hududlarida ichki turizmni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga muvofiq, quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan:

- ichki turizm oyligi, haftaligi va kunligini o'tkazish;
- ichki turizm uchun turizm tashkilotlari, joylashtirish shoxobchalari va ovqatlanish joylari tomonidan ixtiyoriy-mavsumiy chegirmalarni joriy etish;
- oilaviy sayohat ta'tilini tashkil qilish;
- O'zbekiston bo'ylab sayohat va ziyorat turizmi gidlarini tayyorlash;
- sayohat va ziyorat turizmi gidlarini tayyorlash;
- targ'ibot va tashviqot ishlarini kengaytirish hamda mahsus ichki turizm portalini tashkil qilish;
- turist pasportini joriy qilish va ularni mukofotlash.

Buning asosiy sababi berilgan imtiyozlarga nisbatan ishonchni kamligi, targ'ibot va tashviqot ishlarini talab darajasida emasligidir. Ichki turizmni rivojlantirishga qaratilgan mexanizmlarni samaradorligi va aniqlashtirish past bo'lib, ularni qayta ko'rib chiqish lozim.

Tadqiqot metodologiyasi: Ichki turizm va iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish mexanizmlarini tahlil qilishda tadqiqotning uslubiy asoslari ilmiy umimlashtirish, qiyosiy tahlil, yaxlit, tizimli va vaziyatli yondashuvlar usullari bilan taqdim etilgan. Bundan tashqari, ichki turizmni rivojlantirishning konseptual asosini ishlab chiqishda ta'sir qiluvchi iqtisodiy, siyosiy, madaniy, texnologik omillardan foydalanildi

Tahlil va natijalar: Xorij va mamlakatimizda hududiy iqtisodiyot va ichki turizmni rivojlantirish, belgilangan maqsadli parametrlarga erishish mexanizmlarini quyidagi uchta yo'nalishga bo'lgan holda tahlil qilish lozim (1-rasm).


Birinchi yo'nalish aniqlangan maqsadli ko'rsatkichlarni amalga oshirishni ilmiy va innovatsion ta'minlash mexanizmlari bo'lib hisoblanadi. Viloyat hokimligida yoki alohida markaz sifatida iqtisodiyot va turizmni barqaror rivojlantirishni ilmiy asoslash, chuqur tahliliy tadqiqotlarni olib borish, tizimli monitoring asosida mavjud salohiyatdan yanada unumli foydalanish yo'nalishlari, tizimli muammolarni o'z vaqtida aniqlash, ichki va tashqi xavf-xatarni oldini olish bo'yicha takliflar ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega. Buxoro viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va turizm salohiyatini baholashda nisbatan aniq informatsion bazani shakllantirish lozim. Bu o'rinda rasmiy statistika malumotlarini to'plash va aniqlash lozim.

Ayniqsa, viloyatda yalpi hududiy mahsulot hajmini aniqlash uslubini ko'rib chiqish, turizmning iqtisodiy o'sish va tarmoqlarni rivojlanishidagi hissasini aniqlash, ichki va xalqaro turizm ko'rsatkichlariga aniqlik kiritish maqsadga muvofiqdir. Axborot texnologiyalarini qo'llangan holda viloyat iqtisodiyoti va turizmini holatini aniq aks ettiradigan yagona statistik va axborot bazasini shakllantirish zarur.

Iqtisodiyot, jumladan turizm bozorini rivojlantirishda yangi innovatsion g'oya va usullar, texnologiyalardan foydalanmasdan qo'yilgan maqsadlarga erishib bo'lmaydi. Jahon tajribasini chuqur o'rganish, viloyatning o'ziga xos salohiyatini e'tiborga olish, mahalliy olim va

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Butunjahon turizm tashkiloti bosh assambleyasi 25-sessiyasidagi nutqi. - Samarqand, 2023-yil 16-oktabr. Manba: <https://president.uz/oz/lists/view/6763>.

mutaxassislarning innovatsiya yutuqlarini amaliyotga keng joriy qilish bo'yicha keng miqyosda maqsadli ishlarni olib borish lozim. Ayniqsa, turizm xizmatlari ko'rsatishda yangi innovatsion texnologiyalarni qo'llash majburiy chora-tadbirlar qatoriga kiritilishi maqsadga muvofiq.



1-rasm. Buxoro viloyatida iqtisodiyot va turizmni o'zaro bog'liqlikda rivojlantirish mexanizmlari tizimi ¹

Jahonda iqtisodiy raqobatni kuchayib borishini hisobga olgan holda viloyat iqtisodiyoti va turizmi salohiyatining raqobatbardoshlik afzalliklaridan samarali foydalanish yo'llarini ilmiy asoslash muhim ahamiyatga ega. Qadimiy tarixiy-madaniy yodgorliklar bilan bir qatorda viloyatning tranzit safar (Markaziy Osiyoning O'rta osiyo va mamlakatimiz markazida joylashganligi) o'ziga xos sifatli va ekologik xavfsiz meva va sabzavotlar ishlab chiqarish, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoatidagi ixtisoslashuv, davolanish va rekreatsiya omilining mavjudligi nisbatan raqobat afzaliklarini shakllantirishda muhim o'rin egallaydi.


Maqsadli dastur doirasida ishlab chiqiladigan tadbirlarni samarali amalga oshirish mexanizmi sifatida erkin iqtisodiy zonalar, mahsus sanoat va turizm zonalarini yoki klasterlardan keng foydalanish taklif etiladi. Viloyatda Buxoro, Kogon va G'ijduvon shaharlari doirasida mahsus turistik klasterlarni shakllantirish maqsadga muvofiq.

¹ Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Hozirgi kunda olimlar va mutaxassislar tomonidan mintaqani raqobatbardoshligini oshirishning asosiy mexanizmi sifatida mintaqaviy klasterlarni shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqishga qaratilgan. Lekin, bu borada yagona qarash va fikrlarning mavjud emasligini ta’kidlash lozim.

“Klaster” tushunchasi “birga o’smoq” degan ma’noni anglatadi. Uni ilk bora fanga kiritgan, mamlakatlar ichki bozorini rivojlantirishi va iqtisodiyotning raqobatbardoshlik darajasini oshirishdagi ahamiyatini ochib bergan olim, Garvard biznes maktabining professori Maykl Porter hisoblanadi. Uning fikricha, “Klaster - hududiy (geografik) jihatdan bir-biriga qo’shni, o’zaro bog’langan, ma’lum sohada faoliyat ko’rsatuvchi, umumiy maqsad yo’lida bir-birini to’ldiruvchi kompaniyalar va ular bilan bog’liq turli tashkilotlar guruhidir”¹.

Turli fikr va mulohazalarni umumlashtirilgan holda, fikrimizcha, mintaqaviy klaster tushunchasi quyidagicha ta’riflanadi: Mintaqaviy klaster - aniq bir hududda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqaruvchi va xizmatlar ko’rsatuvchi o’zaro aloqador va bir-biriga geografik yaqin joylashgan korxonalar (tashkilotlar) majmuasidir. Jahon tajribasiga ko’ra, mintaqaviy klasterlar o’zaro aloqador korxonalar va tashkilotlar faoliyatining samaradorligini yuqori darajaga ko’tarish, mintaqa raqobatbardoshligini oshirish, o’z brendini shakllantirish, hududlarda innovatsion faollikni rivojlantirish hamda yangi ish joylarini tashkil qilishga ta’sir ko’rsatadi.



2-rasm. Viloyatda mintaqaviy turistik klasteri shakllantirish omillari va asosiy yo’nalishlari²

¹ Khidirova G.R. Current condition and systematic problems of tourism development in Bukhara region. // Electronic journal of actual problems of modern science, education and training. October, 2020-V. ISSN 2181-9750.

² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Mintaqaviy klaster konsepsiyasini turli sohalar, jumladan Buxoro viloyatida to'qimachilik va turizmda qo'llash innovatsion yo'nalish sifatida ko'p jihatdan samarali ekanligi, xorijiy va mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan e'tirof etilmoqda. Turizm klasterini Buxoro viloyati shaharlari va tumanlarida shakllantirish quyidagi hududiy omillarga asoslanadi (2-rasm).

Bunda hududlarning geografik o'rni va tabiiy sharoit afzalliklari inobatga olinishi lozim. Keyingi omil bu avlod ajdodlarimizning aql-zakovati bilan bunyod etilgan tarixiy-me'moriy obidalar va boshqa boyliklar hisoblanadi. Viloyatning o'ziga xos xususiyatlariga aholini milliyligi va bag'rikengligi, mehmondo'stligidir. Ayniqsa, mehmondo'stlik turizm sohasi uchun eng muhim omil hisoblanadi. Buxoroliklarning urf-odatlarini, marosim va manaviy qadriyatlaridan turizm xizmatlarini rivojlantirishda keng qo'llanishi mumkin.

Turizm klasterini shakllantirish va rivojlantirishda asosiy ma'suliyat davlat va mahalliy boshqaruv organlariga tushadi. Mintaqaviy klasterlar va turizm bozorini rivojlantirish davlat tomonidan ishlab chiqilgan strategiya, dasturlar va alohida chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Buxoro viloyati iqtisodiyoti va turizm bozorini istiqbollarni e'tiborga olgan holda shaharlarda turizm klasterini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha mamlakat va mintaqa darajasida me'yoriy huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy chora-tadbirlar ishlab chiqish va belgilangan tartibda qaror qabul qilish lozim. Davlat tomonidan turizm klasterlarini qo'llab-quvvatlash soliq imtiyozlari, jumladan yer va mulk solig'idan ozod qilish, foydadan olinadigan soliq miqdorini kamaytirish, yer va inshootlarni ijara haqini kamaytirish (ozod qilish), zamonaviy infratuzilma obyektlari bilan ta'minlangan maydonlarni "yagona darcha" prinsipida amalga oshirish va boshqalar.

Ko'rib chiqilayotgan tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlar orasida mamlakat va viloyat doirasida boshqaruv tizimini takomillashtirish, aniq iqtisodiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlaridan foydalanish asosiy o'rinlardan birini egallaydi.

Iqtisodiyot tarmoqlari va turizmni rivojlantirishda mumkin bo'lgan va real talabni o'rganish va aniqlash muhim o'rinni egallaydi. Chunki, mahsulotlar va xizmatlarga bo'lgan real talabni bilmasdan turib, iqtisodiyot va turizmni rivojlantirib bo'lmaydi. Real talab o'z-o'zidan shakllanmaydi. Buning uchun keng targ'ibot va tashviqot ishlarini amalga oshirish zarur. Ichki va xalqaro turizmga bo'lgan talabni shakllantirishda mavjud salohiyatni keng targ'ib qilish, aholini unga qiziqishini uyg'otish lozim bo'ladi.

Turizm sohasi, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish uchun mahalliy va xorijiy tadbirkorlarini keng jalb qilish, ular uchun qulay muhitni shakllantirish maqsadga muvofiq. Investitsion faollikni oshirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish uchun aniq moliyaviy, iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlardan keng foydalaniladi. Ular imtiyozli soliq, kredit, bojxona, xizmatlar, vizalar va boshqa usullardan iborat bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ma'lum vazifalarni bajarish uchun, jumladan viloyatda iqtisodiyot va turizmni rivojlantirishda davlat va mahalliy boshqaruv organlarining masuliyatlari aniq belgilab olinishi lozim.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlarga qaramasdan davlat va mahalliy boshqaruv organlari vazifa va majburiyatlarini aniq belgilash va chegaralash masalalari dolzarb va murakkab bo'lib qolmoqda. Ijtimoiy sohani boshqarishda mahalliy hokimliklar asosiy vazifani o'zlariga olishlari va joylardagi tizimli muammolarni hal qilishda javobgarlikni bosqichma-bosqich olishlari lozim. Xuddi shuningdek, turizm salohiyatini boshqarishda davlat va mahalliy hokimlik vazifalari aniq belgilanib olinishi kerak.

Mamlakatimizda qabul qilingan mamuriy islohotlar konsepsiyasiga muvofiq, boshqaruvda normakazlashtirishda quyidagi chora-tadbirlarga amal qilinishi lozim:

- davlat organlari vazifalarini bosqima-bosqich mahalliy hokimlik organlariga berish;
- mahalliy budjetlar ahamiyatini kuchaytirish, mahalliy hokimliklarning o'z mulkini shakllantirish, ularning bajaradigan vazifalarini moliyaviy va moddiy resurslar bilan muvofiqlashtirish, viloyat, tuman va shahar hokimlik organlarining iqtisodiyot, ijtimoiy va turizm sohasidagi o'rni va ma'suliyatini yanada oshirish.

Muallif tomonidan Buxoro viloyatida iqtisodiyot va turizmni rivojlantirishda boshqaruv tizimidagi vazifalarni turli darajalarda aniqlashtirish taklif qilingan (1-jadval).

1-jadval

Buxoro viloyatida iqtisodiyot va turizmni rivojlanishining boshqaruv tizimidagi vazifalarni taqsimlanish darajalari¹

№	Iqtisodiy sohalarni rivojlantirish yo'nalishlari	Mamlakat miqyosida	Viloyat miqyosida	Shahar va tuman miqyosida
1	Sanoat	Asosiy	Asosiy	Asosiy
2	Qishloq xo'jaligi	Asosiy	Asosiy	Asosiy
3	Xizmatlar, shu jumladan turizm	Asosiy	Asosiy	Asosiy
4	Yirik strategik ahamiyatga ega bo'lgan xom ashyo qazilmalarni o'zlashtirish	Asosiy	Qo'shimcha	Qo'shimcha
5	Mahalliy qurilish materiallari, ikkilamchi xom-ashyo, chiqindilarni qayta ishlash va o'zlashtirish	Qo'shimcha	Asosiy	Asosiy
6	Mintaqalararo hamkorlikni ta'minlash, shu jumladan turizm sohasida	Asosiy	Asosiy	Qo'shimcha
7	Infratuzilma obyektlari, shu jumladan turizm sohasida	Asosiy	Asosiy	Asosiy
8	Tadbirkorlik, shu jumladan hunarmandchilik	Asosiy	Asosiy	Asosiy
9	Ichki turizm	Asosiy	Asosiy	Asosiy
10	Xalqaro turizm	Asosiy	Asosiy	Qo'shimcha
11	Bandlikni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini tashkil qilish	Asosiy	Asosiy	Asosiy

Sanoat va turizm bilan bog'liq tarmoqlarini boshqarishda vazirliklar, assosatsiyalar, kompaniyalar va firmalar asosan viloyatda joylashgan yirik strategik ahamiyatga ega bo'lgan korxonalar faoliyatini tartibga solishda bevosita qatnashadilar.

Xususiyl tadbirkorlik va kichik biznes korxonalar faoliyatini muvofiqlashtirish viloyat, shahar va tuman hokimliklari tomonidan amalga oshirilishini belgilab qo'yish kerak.

Mahalliy hokimliklar qaysi mulk shaklidan qat'iy nazar, sanoat korxonalarini yer va suv resurslari, ishchi kuchi bilan ta'minlash orqali o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yishlari lozim. Qishloq xo'jaligini boshqarishda mutasaddi vazirliklar umumiy qoidalarni ishlab chiqish, davlat tomonidan fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash, yirik suv inshootlari faoliyatini samarali ishlashini ta'minlashga qaratilishi lozim. Agrar sohada asosiy islohotlar, tarkibiy o'zgarishlar va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda viloyat va tuman hokimliklari asosiy mas'uliyatni o'zlariga olishlari kerak.

Xizmat ko'rsatish va servis sohaslarini rivojlantirishda vazirliklar va kompaniyalar vazifasi yagona texnik siyosatni amalga oshirish, mahalliy tadbirkorlar va xorij investorlari uchun qulay shart-sharoit yaratishga qaratiladi. Viloyatning o'ziga xos xususiyatlari, aholi va sayyohlar talabidan kelib chiqqan holda xizmatlarning natijadorligi va samaradorligini ta'minlash mahalliy hokimiyat vakillariga yuklanadi.

Viloyatda joylashgan mineral xom-ashyo zaxiralarini o'zlashtirishda respublika boshqaruv tashkilotlari strategik ahamiyatga ega bo'lgan resurslarini (neft, gaz va rangli metallar) qazib olish va qayta ishlashga javob beradilar. Mahalliy xom-ashyo zaxiralari (qurilish materiallari va ikkilamchi xom-ashyo, chiqindilar) o'zlashtirish va qayta ishlash viloyat va tuman hokimliklari tomonidan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

¹ Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Turizm sohasini rivojlantirishda, jumladan, Buxoroda ichki turizmni tubdan yangidan shakllantirish va yuqori sur'atlar bilan rivojlantirishda mamlakatning mintaqalari bilan o'zaro hamkorlikni tashkil etish lozim. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va mahalliy hokimlik organlarining asosiy vazifalari qatoriga kiradi. Infratuzilma obyektlarini viloyatda joylashtirish va rivojlantirishda davlat va mahalliy hokimliklari vazifalarini ham aniqlab olish zarur. Yirik strategik ahamiyatga ega infratuzilma obyektlari (milliy havo yo'llari transporti, avtomobil yo'llari transporti, avtomobil yo'llari, gaz quvurlari, milliy universitetlar va yirik ixtisoslashgan davolash muassasalari va boshqalar) mutasaddi davlat vazirliklari va korxonalari tomonidan boshqariladi. Mahalliy hokimliklarni asosiy vazifalari ijtimoiy infratuzilma obyektlarini o'z mulkiga o'tkazish va ularni quvvatiga qarab viloyat, shaharlar va tumanlar boshqaruviga o'tkazish bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqish va moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash kerak.

Xususiy tadbirkorlik, jumladan hunarmandchilikni rivojlantirish mahalliy hokimiyatlar majburiyatiga kiritilgan holda respublika doirasida ularni qullab-quvvatlashning yagona tizimini ishlab chiqish lozim. Viloyatda iqtisodiyot va turizm sohasini rivojlantirishda mamlakat, viloyat, shahar va tumanlar hokimliklarining yagona asosiy vazifasi aholini bandligini ta'minlash va yangi ish o'rinlarini tashkil etishdan iborat bo'lib, har bir vazirlik, tashkilot va hokimlik organi o'zining aniq mas'uliyatini belgilab olishi kerak.

Hokimiyatlar o'zlari bajaradigan aniq vazifalarni amalga oshirishlari uchun, avvalambor mahalliy budjet salohiyatini oshirish zarur bo'ladi. Buning uchun ular ma'lum soliq turlarini viloyatda qoldirish va tadbirkorlar uchun imtiyozlar berish huquqiga ega bo'lishlari lozim. Mahalliy budjet va budjetdan tashqari mablag'lardan tashqari viloyatda iqtisodiyot va turizmni o'zaro bog'langan holda yuqori sur'atlar bilan rivojlantirish va maqsadli ko'rsatkichlarga erishish uchun mahsus jamg'armani shakllantirish maqsadga muvofiq. Uning asosiy manbai xorijiy davlatlarda yashayotgan buxoroliklar va xorijiy davlat grantlaridan kelib tushadigan mablag'lar va ichki turizm prognoz ko'rsatkichlarini bajarishdan tushadigan mablag'lar tashkil etishi mumkin.

Eng asosiy vazifa Buxoro viloyatida iqtisodiyotni turizm bilan bog'langan holda rivojlantirish uchun yagona boshqaruv tizimini tashkil etish taklif etiladi. Yagona boshqaruv va qullab-quvvatlash tizimida viloyat aholisi, mavjud barcha davlat va nodavlat tashkilotlari (xalq deputatlari kengashi, huquq-tartibot organlari, iqtisodiyot va soliq va boshqa viloyatda joylashgan muassasalar) faol ishtirok etishi va o'zaro birlashib, unda asosiy e'tibor turizmni rivojlantirishga qaratilishi lozim. Buning uchun viloyat, shaharlar, tumanlar xalq deputatlari kengashlari, hokimlik boshchiligidagi mahsus kengashni faoliyatini yanada faollashtirish, ular tomonidan doimiy monitoring qilish tizimini shakllantirish kerak.

Iqtisodiyot va ichki turizmni rivojlantirishda doimiy qo'laniladigan mexanizmlar sifatida (uchinchi yo'nalish) huquqiy va me'yoriy ta'minlashni ko'rsatish mumkin. Shuningdek, soliqqa tortish va sug'urtalash mexanizmlariga alohida e'tibor qaratish lozim. Ushbu mexanizmlar ichki turizm va iqtisodiyot sohalarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishga imkon beradi.

Eng muhimi, viloyatning ichki turizm va iqtisodiyot sohalarini o'zaro bog'liqlikda rivojlantirishga qaratilgan va jamoatchilik asosida ishlaydigan onlayn uyushmani tuzish maqsadga muvofiq. Buning uchun yangi veb-sahifa yaratilib, u tizim shaklida yagona admin tomonidan boshqariladi va foydalauvchilarga xizmat ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar: Bizning fikrimizcha, "Turizm to'g'risida va mahalliy boshqaruv organlari to'g'risida"gi qonunlarni qayta ko'rib chiqish va yangi loyihalarini ishlab chiqish lozim.

Mamlakat va mintaqalar doirasida iqtisodiyot va turizmni rivojlantirishga qaratilgan rasmiy hujjatlarda asosan barcha ijro etuvchi davlat organlari va tadbirkorlar faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan yagona qonuniy-me'yoriy qoidalar, umumiy ko'rsatmalar va chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqilgan. Bizning fikrimizcha, mamlakat va mintaqalar doirasida ichki turizmni tashkil etish va yuqori sur'atlar bilan rivojlantirishga qaratilgan qonuniy-me'yoriy hujjatlar, davlat va mahalliy hokimiyat organlarining aniq vazifa va masuliyatlarini belgilashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi, mahsus qonunni qabul qilish dolzarb bo'lib qolmoqda. Bu o'rinda Buxoro viloyati Xalq deputatlari kengashlarini iqtisodiyot va turizmni barqaror

rivojlantirishga qaratilgan mahalliy me'yoriy hujjatlar va qarorlarni qabul qilishdagi mas'uliyatini yanada oshirish lozim. Ularni maqsadi turizm bilan bog'liq tadbirkorlik sohaslarini qo'llab-quvvatlash, shaharlar va tumanlar doirasida maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va tasdiqlashga qaratilishi maqsadga muvofiq.

1. Hududda turizm va iqtisodiyotni o'zaro bog'liqlikda rivojlantirishni konseptual modeli taklif qilingan. Unga muvofiq, ustuvor yo'nalishlar, investitsiya dasturlari va loyihalarini amalga oshirishda quyidagi bog'liqliklarni o'zaro muvofiqlashtirish belgilangan:

- viloyatni kompleks rivojlantirish va turizmni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish;
- barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda turizmni hissasini oshirishga erishish;
- iqtisodiyot tarmoqlari va turizm xizmatlarining ixisoslashuvini o'zaro bog'lash;
- investsion loyihalarini amalga oshirishda turizm xizmati ehtiyojlarini e'tiborga olish;
- turizmni rivojlantirishda raqamli va yashil iqtisodiyotni amalga oshirishni ko'zda tutish;
- inson kapitalini rivojlantirishni bevosita turizm xizmatlari bilan bog'lash va boshqalar.

2. Ustuvor yo'nalishlar sifatida infratuzilma obyektlari, bank-moliya va sug'urta, raqamli texnologiyalar, madaniyat va sport xizmatlarini jadal rivojlantirish, mehmonxona va joylashtirish vositalarini sayyohlar ehtiyojidan kelib chiqqan holda tashkil etish va qayta qurish kabilar taklif etilgan.

3. Viloyat tumanlarining o'ziga xos turistik salohiyatidan samarali foydalangan holda qishloq turizmini rivojlantirish, turistik klasterlarni shakllantirish, kichik sanoat zonalarini tashkil qilish, milliy an'ana va urf-odatlar omilidan amaliyotda keng foydalanish taklif etilgan.

4. O'rta va uzoq muddatda viloyatda turizm va iqtisodiyotni o'zaro bog'liqlikda rivojlantirishning maqsadli parametrlariga erishish uchun uchta yo'nalishni o'z ichiga olgan qo'llab-quvvatlash mexanizmlaridan foydalanish taklif etilgan. Birinchi yo'nalish ilmiy-innovatsion ta'minlash, raqamli va yashil iqtisodiyotga o'tish, ikkinchisi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirish, uchinchi qonuniy-huquqiy asoslarni shakllantirishdan iborat.

5. Hududda iqtisodiyot va turizm bozorini rivojlantirishda yangi innovatsion g'oya va usullar, raqamli texnologiyalardan yagona axborot platformasini tashkil qilish, madaniy-ma'rifiy turistik brend hamda ziyorat turizmini jadal rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish mo'ljallangan.

6. Tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish maqsadida 2030-yilgacha viloyat iqtisodiyoti va turizmni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish, uning asosida aniq davlat dasturini amalga oshirish, Buxoro, Kogon va G'ijduvon shaharlari doirasida mahsus turistik klasterlarni shakllantirish, davlat va mahalliy boshqaruv organlari vazifa va majburiyatlarini aniqlashtirish va nomarkazlashtirishga erishish, xususiy tadbirkorlik va hunarmandchilikni jadal rivojlantirish, investsion loyihalarini turizmni qo'llab-quvvatlash nuqtai nazardan ekspertizadan o'tkazish va boshqalar taklif etilgan.

7. Iqtisodiyot va turizm sohasida islohotlarni samarali amalga oshirish maqsadida "Turizm to'g'risida"gi va "Mahalliy boshqaruv organlari to'g'risida"gi qonunlarni yangi tahrirda qabul qilish, xalq deputatlari kengashlarni iqtisodiyot va turizmni barqaror rivojlantirishga qaratilgan rasmiy hujjatlar va qarorlarni qabul qilishdagi mas'uliyatlarini oshirish ko'zda tutilgan.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Butunjahon turizm tashkiloti bosh assambleyasi 25-sessiyasidagi nutqi. - Samarqand, 2023-yil 16-oktabr. Manba: <https://president.uz/oz/lists/view/6763>
2. Xidirova G.R. Ichki turizm xizmatlarini shakllanishida talab va taklif o'rtasidagi mutanosiblikni baholash/"LOGISTIKA VA IQTISODIYO'T" ilmiy elektron jurnali/2021yil 6-son 250-263b
3. Khidirova G.R. Current condition and systematic problems of tourism development in bukhara region. // Electronic journal of actual problems of modern science, education and training. October, 2020-V. ISSN 2181-9750

4. Khidirova G.R. DOMESTIC TOURISM AS AN IMPORTANT FACTOR IN INCREASING HUMAN SPIRITUALITY// "IQTISODIYOT VA TURIZM" xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali. №2(4) 2022 43-48 b.
5. Khidirova Gavkhar Rustamovna. Improving forecasting of domestic tourism in the Bukhara region by the Arima model // "IQTISODIYOT VA TURIZM" xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali. №3(11) 2023 140-146
6. Хидирова Г.Р. Перспективы развития внутреннего туризма в регионе.//Журнал. Экономика и предпринимательство. № 7 (156) 2023г. 129366. Россия, г. М.: - 629-641с
7. Xidirova G.R. Turizm-mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini harakatlantiruvchi drayver. // Moliya va bank ishi ilmiy-elektron jurnal 6/2020, ISSN 2181-8464, T.: 127-133b
8. Xidirova G.R. Mintaqada ichki turizmning shakllanishida mahalliy turistlar sonining istiqboldagi prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish// "IQTISODIYOT VA TURIZM" xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali. №5(13) 2023 143-158 b
9. Xidirova G.R. Mintaqada ichki turizm shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari// O'ZBEKISTON IQTISODCHILARI FORUMI Toshkent, 2022 yil, 14 oktyabr 257-262 b
10. Xidirova G.R. Mintaqada ichki turizmni rivojlantirishning konseptual asoslari . // "IQTISODIYOT VA TURIZM" xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali. №2(2) 2021